

MADANIY VA MA'RIFIY MARKAZLARINING TARIXI VA RIVOJLANISH OMILLARI

S.A.Qodirova

o'qituvchi, professor TAQU, Toshkent

B.I.Inogomov

dotsent, TAQU, Toshkent

L.Sh.Raximov

katta o'qituvchi, TAQU, Toshkent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10073051>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Madaniy va ma'rifiy markazlarning vorisi sifatida tarixiy shakllanishining taraqqiyot bosqichlari va istiqboldagi rivojlanish muammolari, madaniy va ma'rifiy markazlarni ob'ektlarini majmular tarzida shakllantirish masalalari kompleks tarzda Yetarlicha va maxsus tadqiq qilinmagan.

Kalit so'zlar: kinematografchi, kompozitor, kinolektoriy, voizxonlik, klub, arxeolog, xvalissm, vaxshu, ardivisura-anaxita.

ИСТОРИЯ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕНТРОВ

Аннотация: В данной статье этапы развития исторического формирования культурно-просветительских центров как преемника и проблемы дальнейшего развития, вопросы формирования культурно-просветительских центров в виде комплексов не были достаточно и конкретно всесторонне исследованы.

Ключевые слова: кинематографист, композитор, кинематографист, проповедник, клуб, археолог, хвалиссм, вахшу, ардвисура-анахита.

HISTORY AND DEVELOPMENT FACTORS OF CULTURAL AND EDUCATIONAL CENTERS

Abstract: In this article, the development stages of the historical formation of cultural and educational centers as a successor and future development problems, the issues of forming cultural and educational centers in the form of complexes have not been adequately and specifically researched in a comprehensive manner.

Keywords: cinematographer, composer, cinematographer, preacher, club, archaeologist, khvalissm, vakhshu, ardivisura-anakhita.

KIRISH

Milliy-madaniy markazlar — O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari. Milliy-madaniy mark O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to'g'risidagi amaldagi qonunlariga hamda o'z nizomiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi. Milliy-madaniy markazlari. muayyan millatga xos bo'lgan milliy madaniyat, til, urfodat, an'ana va taomillarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfa'atdor bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tuzildi. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. O'zbekiston mustaqilligi

munosabati bilan ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada milliy-madaniy markazlar soni yil sayin ortib bordi. Agar 1992-yil 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo'lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga kelib esa 135 taga yetdi. Ular respublika madaniy markazlari, viloyat, shahar, tuman madaniy markazlaridan iborat[1].

ASOSIY QISM

Xorazm - o'rta asr Sharqning qadimgi madaniyat o'chog'i

Xorazm - Amudaryoning quyi oqimi va Orol havzasidan janubda joylashgan, aholisining kundalik hayoti sug'orma dehqonchilikka asoslangan qadimgi madaniy o'lkadir. Yozma manbalarning guvohlik berishi, arxeologik qazishlar va hozirgi tadqiqotlarning tasdiqlashicha, Xorazm davlatchiligi kamida 2500-3000 yillik tarixga ega.

Xorazm etnosi ham qadim davrlarda, mil. avv.II mingyllik oxirlarida shakllangan. U payt lardagi Xorazm ancha janub va g'arbdagi erlarni ham qamragan, hatto hozirgi Xirot atroflari, Kaspiy va Qora dengizi oralig'i Xorazmning ta'sir doirasida bo'lган. Turli tarixiy davrlarda Xoraz mning geografik o'rni va mavqeい ko'п jihatdan

Amudaryoga bog'liq bo'lган. Buyuk Xorazmlik olim Abu Rayhon Beruniy aytganidek, h uddi Misr Nilning mahsuli bo'lgani kabi Xorazm ham Amudaryoning mahsuli bo'lган. Amudary oning oqimi va o'zanining o'zgarishiga qarab Xorazm aholisining ham qandaydir bir qismi yash ash joylarini o'zgartirib turgan. Yana o'sha olimning guvohlik beriShicha, milod boshlarida Amudaryoning bir o'zani Kaspiy dengiziga qo'shilgan paytlarda daryoning atrofida Xorazmliklarning 300 dan ortiq shahar va qishloqlari joylashgan. O'Sha davrlarning sadosi sifatida yana bir Xoraz mlik buyuk olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-

850) Kaspiyning Xorazm dengizi degan. Bu nom rus solnomasida ham akslangan. Qadimgi rusl ar Xorazmni «Xvalissm» va Shu dengizni «Xvalisskoe More» deganlar. Eng qadimgi dinlardan b o'lmiSh zarduShiylik (zoroastrizM) dinining ibtidosi ham Xorazm bilan bog'lanadi. Olimlarning tadqiqotiga ko'ra bu dinning payg'ambari bo'lmiSh Zarduaht (yunonchada Zoroastr) miloddan avvalgi 1500-

1200 yillar oralig'ida Volgadan Sharqdagi chorvachilik bilan dehqonchilik madaniyati uzviy bog'langan mintaqada, demak, Xorazm madaniyati hududida paydo bo'lган.

Qadimgi Xorazmda dunyoviy fanlar ham ma'lum darajada rivojlangan bo'lган.

Qadimgi Xorazmning shahar-xarobalari qo'y qirilgan qal'a, Tuproq qal'a va

boshqalarda yuksak darajadagi Shaharsozlik madaniyatidan va ilm fan izlaridan dalolat beruvchi ashyoviy dalillar topilgan. Xususan, qo'y qirilgan qal'adan astronomik kuzatiShga moslaShtirilgan qurilma va uskunalarning qismlari topilgan. Islomgacha Xorazm da astronomiya ilmining yuqori darajada rivojlanganligi haqida Beruniy ham dalillar keltiradi. Ol im u paytlar Xorazmliklar astronomiyani «axtarvenik» deganlari va ularning astronomik bilimlar i arablarnikidan chuqr va aniq bo'lganligini aytgan[2].

Samoviy hodisalarini tabiat hodisalarini bilan bog'lash va qiyoslash natijasida O'rta Osiyoda dastlab zardushtiylik taqvimi vujudga kelgan. Uning asosida Sug'd va Xorazm taqvimi tuzilgan. Taqvim yili 365 kun va 12 ta oydan iborat bo'lган.

Mil. avv. V-IV asrlarda oromiy alifbosi harflari tizimiga asoslangan Xorazm yozuv madaniyati shakllanadi. Qadimgi xorazm yozushi antik davrida keng yoyiladi. Bu yozuv 20 ta harfdan iborat bo'lib, sopol sirtiga, charmga va yog'och taxtachalariga bitilgan. Xorazm yozushi orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni, moddiy va ma'naviy madaniyatga oid tarixiy muammolarni o'rganish mumkin.

Hujjatlarda davlat xazinasiga soliq majburiyati sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini topshirgan aholi vakillarning ro‘yxati, ibodatxonalar xo‘jaligidan chorva, un, hunarmandchilik buyumlari alohida shaxslarga berilganligi haqidagi ma’lumotlar, xonadonlar ro‘yxati va shaxslar ismlari, qayd etilgan hamda “Avesto”dan ma’lum xudolar nomlari, Amudaryoning homisi, ilohi “Vaxshu” va boshqa ma’lumotlar keltirilgan. Xorazmda saroy va ibodatxonalar qoshida boshlang‘ich maktablar mavjud bo‘lishini taxmin qilish mumkin. Bu maktablarda bolalarni yozish va hisobga o‘rgatishgan. Ikkinchi bosqichda o‘sprinlardan xo‘jalik va ma’muriy ish yurituvchi xattotlar tayyorlanganligi ehtimoldan holi emas.

Xorazm ko‘hna shaharlarida ko‘pdan-ko‘p sopol haykalchalar topilgan. Ular ichida ayol haykalchalari diqqatga molik. Mazkur haykalchalar buyuk “Ona iloha” yoki suv, hosildorlik, ma’budasi Ardvisura - Anaxita (xorazm tilida - Naxitak) ramzini o‘zida aks etadi. Xorazm sopol idishlarning sirtidagi mifologik-asotirli mavzular bilan bog‘liq bo‘rtma rasmlar o‘rganilgan. Ular qadimiylar e’tiqodlar mazmun-mohiyatini ochib beradi. Shuningdek, Kushon davlati orqali Hindistondan Xorazmga olib kelangan Budda hamda fil, maymun sopol haykalchalari va xalsedondan ishlangan marjonlar topilgan[3].

Haykaltaroshlik, tasviriy san’at, musiqa.

Jamiyatning madaniy taraqqiyotida, e’tiqodlarda, madaniy aloqalar rivojida badiiy madaniyat, xususan, san’atning ahamiyati nihoyatda kattadir. O‘rta Osiyoning qadimgi xalqlari minglab yillar davomida yuksak darajadagi amaliy va badiiy san’at namunalarini yaratib, badiiy madaniyatni bosqichma-bosqich rivojlantirib borganlar. Bu jarayon antik davrda ham davom etdi.

Avvalambor Shimoliy Baqtriya haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, antik davrda bu hududlarning badiiy madaniyati boy va rang-barang edi. O‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Shimoliy Baqtriyadan antik davrga oid ko‘plab badiiy madaniyat namunalarini topib o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bu davrda aholining ma’naviy hayotida haykaltaroshlik, mahobatli inshootlar, musiqa, teatrlashtirilgan manzaralar, tasviriy san’at katta ahamiyat kasb etgan. Bu hududlardagi Ayrитом, Xolchayon, Dalvarzin, Fayoztepa, Kampirtepa, Termiz, Qoratepa, Oqqa‘rg‘on, Barottepa kabi yodgorlikdan ko‘plab topilgan badiiy san’at topilmalari yuqorida qayd etilgan mulohazalarning amaliy tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi[4].

XULOSA

Madaniy-ma’rifat ishi - keng ommani madaniy va ma’rifiy tarbiyalash, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tariximizdan beri shakillanib kelmoqda. Madaniy-ma’rifat ishi mazmuni, vazifasi, maqsadi har bir davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy xususiyatlariga bog‘liq, holda shakllanib rivojlanadi. Madaniy-ma’rifat ishi keng ma’noda o‘quv muassasalaridan tashqarida insonning madaniy va ma’naviy o‘sishiga ko‘maklashuvchi barcha ishlar (klub tashkilotlari, ommaviy kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati)ni qamrab oladi, muzey, kinoteatr, teatr va boshqa muassasalar ishlari, shuningdek, radio va televideniye muhim o‘rin tutadi. Madaniy-ma’rifat ishi. muassasalarining keng tarmoqlari yaratilib, ularning usishi va takomillasha borishi bilan unga rahbarlik jarayoni ham o‘zgarib boradi.

Dunyoqarashni shakllantirish tarbiyasi, axloqiy tarbiya, iqtisodiy bilimlarning ilmiy texnikaviy tashvikrt va targ‘iboti, estetik va jismoniy tarbiya, badiiy havaskorlik, madaniy dam olishni tashkil qilish kabilalar Madaniy-ma’rifat ishi faoliyatining turli yunalishlaridir.

Madaniy-ma'rifat ishi shakllari muntazam rivojlanadi va takomillashib boradi: klub muassasalarida an'anaviy shakllar (suhbat, ma'ruza, voizxonlik, spektakl, konsertlar) bilan birga mavzuli kechalar, kitobxonlar konferensiyalari va boshqa tadbirlar uyshtiriladi, xalq universitetlari, kinolektoriylar va boshqa tashkil qilinadi. Bunda badiiy havaskorlik muhim o'rin tutadi, xalq teatrлari, yoshlar tashkiloti va boshqa jamoat tashkilotlari (yozuvchilar, kompozitorlar, rassomlar, kinematografchilar, xor jamiyatlari, tarixiy va madaniy yodgorliklarni himoya qilish va shahrik. tashkilotlar) katta Madaniy-ma'rifat ishini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 26 martdagি, №PQ-5040 <https://yuz.uz/uz/news/manaviy-marifiy-ishlar-tizimini-tubdan-takomillashtirish--chora-tadbirlari-to'grisida>.
2. Tolstov S. P., Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab, Toshkent, 1964;
3. Xayitboy Dedaxonovich Xolmirzayev Qadimgi xorazm madaniyati evolyusiyasida madaniy sintez, integratsiya va transformatsiya jarayonlari "oriental art and culture" scientific-methodical journal / issn 2181-063x.
4. Xolmirzaev X.D., Kadirova Ya.B., Kadirova X.B. Madaniyatshunoslik.-B. 190.-T.-2022.
5. Kidirniyazov M.Sh. Materialnaya kultura gorodov Xorezma v XIII—XIV vekax. Nukus: Karakalpakstan, 1989.
6. Qodirova, S. A., Raximov, L. S., Allayorov, K. O., & Sodiqov, M. M. (2021). Peculiarities Of The Buildings Of The Cultural And Educational Center. The American Journal of Engineering and Technology, 3(03), 1-6.
7. Adilovna, Q. S. (2021). Features of the Design of Public Buildings in the Organization of Public Services. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(10).
8. Yunusov, S. H., & Qodirova, S. A. (2021). Issues Related to National Forms in the Architecture of Uzbekistan. Design Engineering, 10940-10943.
9. Qodirova, S., & Raximov, L. (2022). IMPROVEMENT OF ARCHITECTURAL SOLUTIONS OF HIGH SCHOOL BUILDINGS IN THE CITY OF NUKUS IN A MODERN STYLE. Science and Innovation, 1(8), 365-372.
10. Qodirova, S. A., Aripova, N. A., Raximov, L. S., Turebaev, J. O., & Abdusalomov, U. X. (2021). Requirements For The Formation Of The Historical Structure And Internal Environment Of Secondary Schools. The American Journal of Engineering and Technology, 3(04), 60-64.
11. Adilovna, Q. S. (2021). THE LINK OF CULTURAL AND EDUCATIONAL CENTERS TO THE SOLUTION OF THE PROJECT IDEA. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(11), 92-95.
12. Qodirova, S., & Raximov, L. (2022). НУКУС ШАҲРИДАГИ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБ БИНОЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАВИЙ ЕЧИМЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ТАРЗДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Science and innovation, 1(C8), 365-372.
13. Qodirova, S. A., Raximov, L. S., Qurbonov, R. X., & Djoldasov, A. B. (2021). Typological Features Of Traditional Settlements In Fergana. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(01), 48-58.
14. Salaxovna, S. Z., Atxamovna, A. N., & Shaxnazarovich, R. L. (2021). JAMOAT BINOLARI "MADANIY-MA'RIFIY MARKAZLARNING" TIPOLOGIK BELGILARINI

- SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 449-453.
15. Adilovna, Q. S, Raximov.L.Sh (2022) ARCHITECTURAL ANALYSIS OF THE CULTURAL AND EDUCATIONAL PUBLIC CENTRES OF KHOREZM REGION (UZBEKISTAN) Scopus preview-Seybold Report DOI 10.5281/zenodo.6618689 ISSN:1533-9211
16. Qodirova, S. A., Raximov, L. S., Allayorov, K. O., & Sodiqov, M. M. (2021). Peculiarities Of The Buildings Of The Cultural And Educational Center. The American Journal of Engineering and Technology, 3(03), 1-6.
17. Adilovna, Q. S, Raximov.L.Sh (2022) DESIGN OF CINEMAS IN THE BUILDINGS OF THE CULTURAL AND EDUCATIONAL CENTER MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 DOI: <https://doi.org/10.47494/mesb.2022.23>
18. Inogamov, B. I., & Khasanov, A. O. (2021). Taking Into Account Socio-Functional Factors in the Design of Housing. Design Engineering, 2587-2589.
19. Inogamov, B. I., & Khasanov, A. O. (2021). Taking Into Account Socio-Functional Factors in the Design of Housing. Design Engineering, 2587-2589.
20. Ozadovich, K. A., & Ismailovich, I. B. (2021). Issues of Organization of Service Sets onthe Uzbek National Highway A-380. Design Engineering, 2582-2586.
21. Inogamov, B., Alimjanov, R., & Allayarov, K. (2022). ГИЛ, ЦЕМЕНТ, ГИПС ВА ГРАНИТ КАБИ ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИНИНГ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ҲАМДА ИШЛАТИЛИШИ. Science and innovation, 1(A8), 769-774.
22. Inog'Omov, B., & Alimjanov, R. (2022). СПОРТ ИНШООТЛАРИНИ ЛОЙИХАЛАШДА ҚҮЛЛАНИЛАДИГАН КОНСТРУКЦИЯЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ ТЎФРИСИДА. Science and innovation, 1(C8), 344-348.
23. Inog'Omov, B., & Sodikov, M. (2022). СОЛНЕЧНЫЕ ЭНЕРГИИ В АРХИТЕКТУРЕ. Science and innovation, 1(C8), 327-332.
24. Bakhtiyor, I. (2019). Socio-economic preconditions of the formation of mahalla of a new type. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, (1-2), 3-5.
25. Inogamov, B., Alimjanov, R., & Allayarov, K. (2022). ГИЛ, ЦЕМЕНТ, ГИПС ВА ГРАНИТ КАБИ ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИНИНГ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ҲАМДА ИШЛАТИЛИШИ. Science and innovation, 1(A8), 769-774.
26. Kosimov, I. (2018). Gallery of the dam to keep the entrance of the precipitation and washing to remove sediment, water reservoirs accumulated precipitation pipeline eleaning methods. Role of the using innovative teaching methods to improve the efficiency of education. Россия. Г. Москва-2018.
27. Xasanov, A. N., Abbasova, R. K., & Maibirovich, K. I. (2022). КАСБ ХУНАР МАЖМУАЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ТАРИХИ (ФАРГОНА ВОДИЙСИ МИСОЛИДА). Journal of new century innovations, 19(1), 198-204.
28. Maribovich, Q. I. (2023). Architectural Improvement of Professional Centers. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(3), 85-91.
29. Madamiovna, K. D., & Maripovich, K. I. (2023). The Role of Towns and Baths in Community Life And. European Journal of Contemporary Business Law & Technology: Cyber Law, Blockchain, and Legal Innovations, 1(2), 39-42.
30. Ozodovich, H. A., & Maribovich, Q. I. (2022). Improving the Design of Youth Innovative-Creative and Development Scientific Centers. Eurasian Scientific Herald, 7, 72-76.

31. Dedakhanov, B., & Kasimov, I. (2022). ANCIENT ARCHITECTURE OF THE FERGHANA VALLEY FEATURES OF FORMATION AND DEVELOPMENT (ON THE EXAMPLE OF CIVIL ARCHITECTURE AND URBAN PLANNING). *Science and innovation*, 1(C6), 278-284.
32. Ozodovich, H. A., Maribovich, Q. I., & Zarina, B. (2023). KASBGA YO'NALTIRISH MARKAZINI INNOVATSION LOYIHASI TAKLIFI "KIDZANIA JOB WORLD IN TASHKENT". *PEDAGOG*, 6(1), 120-129.
33. Maribovich, Q. I. (2022). Scientific Proposals for Architectural Improvement of Engineering Centers. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 1(6), 59-63.
34. Хасанов, А. О., & Қосимов, И. М. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ШАРОТИДА КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ МАРКАЗЛАРИНИ АРХИТЕКТУРА ТАКЛИФИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 144-150.
35. Хасанов, А. О., & Қосимов, И. М. (2023). ЖАМИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАСБГА ЙЎНАЛТИШ МАРКАЗЛАРНИ ЛОЙИҲАЛАШНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 136-143.